

**XO‘RAKI KO‘K NO‘XATNING F2 DURAGAY AVLODLARINING 1000  
DONA URUG‘ OG‘IRLIGINING IRSIYLANISHI**

**Muzaffar Xazratqulov**

Samarqad agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti assistenti.

**Akmal Xayitov**

Samarqad agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti tayanch doktorant

**Sarvinoz Anorboyeva**

Samarqad agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti talabasi

**Annotasiya.** Ushbu maqolada ko‘k no‘xatni duragay kuchatzorida ekib o‘rganilgan F2 duragay avlodlarining 1000 dona urug‘ og‘irligining irsiylanish darajasi aniqlanganligi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar.** Don, dukkak, F2 duragay avlod, chatishtirish, mahsuldorlik, nav, namuna, liniya, tadqiqot, irsiylanish, boshlang‘ich matireal.

**Kirish.** Yildan yilga aholi sonining keskin oshib borishi qishloq xojaligi ekinlariga bo‘lgan talabni oshib borishiga olib kelmoqda. Bu talabni qondirishda ko‘k no‘xat alohida ahamiyatga ekin sifatida qaraladi. Sababi bu ekin juda qisqa muddat ichida yuqori va sifatli oziq-ovqat mahsuloti berishi bilan birga tuproq unimdorligini oshirish imkonini beradi hamda chorvachilikda yem xashak muommosini hal qiladi. Shu sababli xo‘raki ko‘k no‘xatning sug‘oriladigan yerlarga mos yuqori va sifatli don berish imkoniga ega yangi navlarini yaratish muhim hisoblanadi.

Yangi navlarni yaratishda seleksiya jarayonida eng qudratli usullardan biri hisoblangan duragaylash ishlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.** Zarafshon vohasi sug‘oriladigan yerlarida xo‘raki ko‘k no‘xatning serhosil, don sifati yuqori bo‘lgan boshlang‘ich manbalarini yaratish hisoblanadi. Xo‘raki ko‘k no‘xat kolleksiyasida mavjud nav namunalari va duragay liniyalarida hosildorlik ko‘rsatkichi buyicha kuzatish olib borish, yuqori hosildorlik natijalarini namoyon qilganlarini tanlab olish va ulardan boshlang‘ich manbalar sifatida foydalanish vazifa qilib belgilandi.

**Tadqiqot o‘tkazish metodikasi va uslublari.** Ko‘k no‘xatning “O‘simliklar genetik resurslari” ilmiy-tadqiqot instituti, “Janubiy dehqonchilik” ilmiy-tadqiqot instituti, “Don va dukkakli ekinlar” ilmiy-tadqiqot instituti, “Lalmikor dehqonchilik” ilmiy-tadqiqot institutidan olib kelingan hamda Rossiya va Janubiy Kareadan olib kelingan

60 ta kolleksiya nav namunasi Samarqand viloyatining Jomboy tumanida joylashgan “FARBOMA SELEKT” ilmiy urug’chilik fermer xo‘jaligini o‘tloq bo‘z tuproqlar sharoitida ekib o‘rganildi. Tadqiqotlarimizda ko‘k no‘xat nav namunalari o‘zaro chatishtirilib duragay avlodlar olindi.

Ko‘k no‘xat o‘simligining F2 duragay avlodlari ko‘chatzorida 16 ta duragay avlodlari ekilib 1000 dona urug‘ og‘irligi belgilarining irsiylanish Mahmod and Kramer formulasi yordamida tahlil qilindi. Duragay avloddan olingan belgi va xususiyat natijalari Robinson va b.lar tomonidan yaratilgan uslubda irsiylanish qobilyati baholandi. Bunda shkala bo‘yicha irsiylanish qobilyati past (0-30%), irsiylanish qobilyati o‘rta (30-60%), irsiylanish qobilyati yuqori (60-100%) ko‘rsatkichlarga ajratilib baholandi.

**Natijalar va ularning muhokamasi** Duragaylash uchun ota-ona shakllarini tanlashda asosan mahsuldorlik ko‘rsatkichlariga etibor qaratish alohida o‘ringa ega. Qimmatli-xo‘jalik belgilariga ko‘ra F2 duragay avlodlarida tanlash ishlarini to‘g‘ri olib borish seleksiya jarayonida yaxshi samara beradi.

O‘rganilgan duragay avlodlarda 1000 dona urug‘ og‘irligi belgisining irsiylanish qobilyati 8 ta kombinasiyada (60-100%) yuqori bo‘lganligi aniqlandi. ♀Surpriz x ♂KP-18-2014/01 duragay avlodida 1000 dona urug‘ og‘irligi 210 gr, variasion o‘zgaruvchanlik koeffisienti  $V=3.9$ , belgining irsiylanish qobilyati  $h^2=74$ , ♀Osiyo-2001 x ♂Usatiy86 duragay avlodida 1000 dona urug‘ og‘irligi 170.1 gr, variasion o‘zgaruvchanlik koeffisienti  $V=5.1$ , belgining irsiylanish qobilyati  $h^2=70$ , ♀Moroz x ♂Osiyo 2001duragay avlodida 1000 dona urug‘ og‘irligi 167.5 gr, variasion o‘zgaruvchanlik koeffisienti  $V=4.2$  belgining irsiylanish darajasi  $h^2=67$ , ♀Osiyo-2001 x ♂Uzbekiston-2001duragay avlodida 1000 dona urug‘ og‘irligi 169 gr, variasion o‘zgaruvchanlik koeffisienti  $V=3.6$ , belgining irsiylanish qobilyati  $h^2=67$ , ♀Jasur-98 x ♂Osiyo 2001 duragay avlodida 1000 dona urug‘ og‘irligi 208,6 gr, variasion o‘zgaruvchanlik koeffisienti  $V=3.9$ , belgining irsiylanish qobilyati  $h^2=66$ , ♀KP-18-2014/01 x ♂Yunior duragay avlodida 1000 dona urug‘ og‘irligi 194.6 gr, variasion o‘zgaruvchanlik koeffisienti  $V=3.7$ , belgining irsiylanish qobilyati  $h^2=62$ , ♀KP-18-2014/01 x ♂Usatiy duragay avlodida 1000 dona urug‘ og‘irligi 190 gr, variasion o‘zgaruvchanlik koeffisienti  $V=3.7$ , belgining irsiylanish qobilyati  $h^2=62$ , ♀Usatiy-1 x ♂Moroz duragay avlodida 1000 dona urug‘ og‘irligi 170,3 gr, variasion o‘zgaruvchanlik koeffisienti  $V=3.7$ , belgining irsiylanish qobilyati  $h^2=60$  bo‘lganligi bilan yuqori baholandi.

### 1-jadval



	♀Uzbekiston 2011 x ♂Knnv15				
	♀Proval 1234 x ♂Knnv15				
	♀ Moroz x ♂Osiyo 2001				
	♀Usatiy x ♂Yunior				
	♀Jasur-98 x ♂Osiyo 2001				
	O'rtacha qiymat				

Tahlil natijalariga ko'ra xo'raki ko'k no'xat F2 duragay avlodlarida 1000 dona urug' og'irligining irsiylanishi ♀Usatiy x ♂Yunior ( $V=4.3$ ,  $h^2=17$ ), ♀Faeton x ♂Moroz darajada bo'lganligi kuzatildi. (1-jadvalga qarang).

. Ko'k no'xatning F2 duragay avlodlarida 1000 dona urug' og'irligining irsiylanishi asosan ajralish bu belgida yaqqol namoyon bo'ldi. O'simlik bo'yi belgisining irsiylanishi  $h^2=60,0$  dan yuqori bo'lgan F2 duragay avlodlari tanlab olindi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. D.T.Abdukarimov "Donli ekinlar seleksiyasi va urug'chiligi" Toshkent 2009
2. "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (Toshkent-2014),
3. Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarida tajribalar o'tkazish uslubi (Toshkent-2023)
4. Б.А.Доспехов "Методика полевого опыта" Агропромиздат. (1985),  
Методика государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур.,  
Выпуск четвертый Картофель, овощные и бахчевые культуры., Москва 2015.